

TRANSPORT BAXOLASH EKSPERTIZASI O'TKAZISH TARTIBI VA AHAMIYATI

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi Navoiy viloyati bo'limi eksperti

Akabirov Ravshan Aminxujayevich

Bugungi kundagi jamiyat hayotini transport vositalarisiz tassavur etish imkoni deyarli mavjud emas, kun sayin transport vositalariga bo'lgan extiyoj ortib borayotganligi, yo'llardagi transport vositalari oqimining sezilarli darajada ortib borayotganligi hammamizga sir emas. Shu bilan bir qatorda transport baxolash ekspertizasiga bo'lgan extiyoj ham ko'payib bormoqda. Ushbu sohada, "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi" ekspertiza muassasi Respublikamizda ozingning salmoqli o'rniga ega.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi Navoiy viloyatida ham ushbu turdagi ekspertiza tadqiqotlari bugungi kunda o'trkazib kelinmoqda.

Bugungi kunda bo'limning asosiy vazifalaridan biri.

"Fuqarolik, iqtisodiy ishlari, ma'muriy va jinoiy ishlar, tergovgacha tekshiruvlar materiallari bo'yicha sud ekspertizalarini o'tkazish, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari bo'yicha ixtiyoriylik asosida ekspert ixtisosliklariga muvofik pullik to'lov asosida tadqiqotlar o'tkazib, mutaxassis fikrlari berish;" hisoblanadi.

Transport baxolash ekspertizasi "Sud Avtotexnika Ekspertizasi" asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Sud transport baxolash ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 180-moddasiga asosan tergovchi, surishtiruvchi va prokurorning qarori va sudning ajrimi asosida o'tkaziladi. Sud avtotexnika ekspertizasi laboratoriyasida sud transport izshunoslik, transport-baxolash, sud avtotexnika, transport vositalarini texnik xolatini tadqiqot qilish va avtomobil yo'l ekspertizalari o'tkaziladi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 iyuldagi PF-6256-son Farmoni"ga muvofiq "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan ekspertlar tomonidan beriladigan "Mutaxassis fikrini" berish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari bo'yicha pullik xizmatlar asosida mutaxassis fikri berish yo'lga qo'yilgan.

Buning uchun fuqaro Markazning Navoiy viloyat bo'limi mudiri nomiga ariza bilan, yuridik shaxs esa yo'llama xat bilan murojaat qiladi va qanday savol xal etilishini ariza yoki murojaatida ko'rsatib o'tadi.

Shu bilan birga, Adliya vazirining 2018 yil 31 oktyabrdagi 337-um-son buyrug'iga Ilovasiga asosan tariflar quyidagicha: Mutaxassis fikrlarini tariflari ekspert o'tkazadigan tadqiqotlarning ob'ektlari kam yoki ko'pligi xamda hal etiladigan savollarning murakkabligiga qarab farqlanadi. Ular oddiy, o'rta va murakkabga bo'linadi.

Jumladan, Sudga oid transport-baholash ekspertizasi tayinlashda ekspertiza muassasasiga taqdim qilinishi lozim bo'lgan asosiy hujjatlar ro'yxati:

- Sudga oid transport baholash ekspertizasi tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrim (Fuqarolar bo'limi mudiri nomiga ariza bilan, yuridik shaxs esa yo'llama xat bilan murojaat qiladi):

- Transport vositasini qayd etish guvohnomasi (texnik pasport, texnik talon, formulyar va x.k);

Sudga oid transport baholash ekspertizasini bajarishda amal qilinishi lozim bo'lgan talablar:

- Transport vositasini (holatiga o'zgaritirish kiritilmagan holda) ko'zdan kechirishni tashkil etish;

- Transport vositasining butlovchi qismlari (baholanishi so'ralgan taqdirda) taqdim etish;

- Maxsus jihozlangan yoki maxsus ishlar uchun mo'ljallangan transport vositalarini ko'zdan kechirishda soha mutaxassislarini qaror asosida jalb qilish.

- Baholanishi lozim bo'lgan ob'ektlar (faqat transport vositasining butlovchi qismlari) haqiqatda mavjud bo'lmagan hollarda, aynan shu turdagi ob'ektning xususiyatlarin aks etuvchi "analog"larni ekspertizaga taqdim qilish.

- Zarur hollarda muqaddam foydalanishda bo'lgan butlovchi qismlarning yaroqlilik darajasi yuzasidan ixtisoslashgan muassasalar (avtotexxizmat, ta'mirlash korxonalarini)dan xulosalarini olish va ekspertizaga taqdim qilish talab etiladi.

Transport baxolash ekspertizasi vakolat doirasida quyidagi savollar hal etiladi:

- ☐ Transport vositalarining bozor bahosini aniqlash;
- ☐ Transport vositalarining
- ☐ Transport vositalariga (turli sabablarga ko'ra) yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlash va tiklash uchun ketadigan sarf-xarajatlar miqdorini aniqlash;
- ☐ Transport vositaning ayrim qismlarini narhini aniqlash va h.k.
- ☐ Ushbu savollarni xal etish uchun transport vositasini yoki aloxida extiyot qismlari taqdim etilishi talab etilishi mumkun.

Shuningdek, baxolash faoliyati bilan shug'illanuvchi yuridik shaxslar va X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi tomonidan amalga oshirilayotgan baxolash xulosalar xususida gapiradigan bo'lsak.

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi tomonidan bugungi kunda berilib kelayotgan ekspertiza xulosalari va mutaxassis fikrlari “O‘zbekiston Respublikasi «Baholash faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni va “O‘zbekiston Respublikasining Yagona Mulkni baholash standarti”lari talablariga normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, transport vositasini qayta tiklashning bozor qiymatini inobatga olgan holda. Shuningdek, ta'mirlash (tiklash) uchun zarur bo'lgan materiallar va ehtiyot qismlar uchun mintaqada mavjud bo'lgan o'rtacha narxlarni va avtomobillarni ta'mirlash ishlariga ketadigan xarajatlarini inobatga olgan holda, mutaxassis foydalangan manbalarga izoh keltirish va mutaxassis tomonidan foydalanilgan formulalar olingan manbalar aniq ko'rsatilgan holda amalga oshiradi. Aynan shu sabab X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi sud, tergov organlari orasida o'zining salmoqli o'rniga ega. Ammo baxolash faoliyati bilan shug'illanuvchi yuridik shaxslar tomonidan berib kelinayotgan baxolash hisobotlari aksariyat hollarda ilmiy va uslubiy jixatdan o'z tasdig'ini topmasdan kelmoqda.

Shu bilan birga X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining (ISO/IEC 17025) xalqaro standartlari talablariga mos xulosa va mutaxassis fikrlari berib kelmoqda. Bu esa o'z o'rnida sud tergov organlarining bizning tashkilot xulosalariga bo'lgan talabini, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning bizning muassasa “Mutaxassis fikri”lariga bo'layotgan extiyoj va ishonni kuchayib borishiga sabab bo'lmoqda.